MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

Olimpiada topshiriqlari (III bosqichi)
TARIX 10

1-qism: Har bir topshiriq 1,3 balldan baholanadi

1. Vizantiya tarixchilari tomonidan "slavyanlar" atamasi qachondan boshlab ishlatilgan?
A) mil. avv. II-I asrlardan B) IV asrdan C) V asrdan D) VI asrdan

2. XVI asrda Usmoniy imperiyasida zarurat tug'ilganida sulton farmonini ijro etish qaysi lavozim egalariga yuklatilgan?
A) Sanjoqbey B) Sipohiy C) Vali D) Yanichar

3. To'xtamishxon va Amir Temur o'rtasidagi hal qiluvchi jang qayerda bo'lib o'tgan?
A) Yettisuvda B) Oltin O'rdada C) Shimoliy Kavkazda D) Orolbo'yida

4. Italiyada ilk gumanizm davri qachon yakunlangan?
A) XIV asr oxiri B) XVI asr o'rtalari C) XV asr boshlari D) XVII asr o'rtalari

5. Fransiya-Prusiya urushi bo'lib o'tgan davrida Rim papasi bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Grigoriy IX B) Piy IX C) Piy II D) Silvestr VII

6. XVIII asrda qaysi davlat tasviriy san'ati namunalarida inglizlarga taqlid qilishdan iborat bo'ldi?
A) Hindiston B) Fransiya C) AQSH D) Xitoy

7. XVIII asrning 70-yillarida Rossiya qaysi davlat bilan o'zaro aloqalar o'rnatishga urindi?
A) Xitoy B) Angliya C) Yaponiya D) Prussiya

8. XVIII asrda AQSH da faoliyat olib borgan mashxur rassomlarni aniqlang.
A) Fenimor Kuper, Mark Jon B) Uolt Uitman, Genri Longfullo
C) Martin Brain, Uolt Uitman D) Benjamin Uest, Jon Kopli

9. Nechanchi yilda Toshkent shahrining 2200 yilligiga atab 100 so'mlik tanga puli zarb etilgan?
A) 2009-yilda B) 2007-yilda C) 2002-yilda D) 2000-yilda

10. Qaysi xalq tomonidan shahar markazida 7 qavatli, 90 metrli ibodatxona minorasi qurilgan?
A) Misrliklar B) Inklar C) Bobilliklar D) Mayyalar

2-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

11. Arxeologiya fanining yordamchi sohasi hisoblangan suvosti arxeologiyasi tarixi qachondan boshlanadi?
A) XV asr boshidan B) XIX asr oxiridan
C) XX asr boshidan D) XX asr o'rtalaridan

12. Italiyani yagona davlatga birlashtirish davrida Venetsiya viloyati qaysi davlat qo'l ostida bo'lgan?
A) Fransiya B) Avstriya C) Ispaniya D) Vatikan

13. Xiva xonligida jadidchilik ikkita oqimdan iborat bo'lib, o'ng oqimni maqsadi nima edi?
A) sarmoyadorlar, hunarmandlar va boshqa tabaqa vakillarini birlashtirish
B) xon hokimiyatini saqlab qolgan holda islohotlar o'tkazish
C) yangi usul maktablarini tashkil qilish
D) xalq ommasining siyosiy faolligini oshirish

14. Qachon AQSH hukumati chegaradagi tushunmovchilikni bahona qilib Meksikaga qo'shin kiritadi?

A) 1911-yil B) 1913-yil C) 1916-yil D) 1917-yil

15. Safaviylar sulolasi vakillaridan qaysi birining hukmronligi davrida yirik yer-mulk egalarining mustaqilligi tugatilib, davlat o‘z qudratining cho‘qqisiga erishdi?

A) Ismoil I B) Sulton Husayn C) Abbos I D) Taxmasp

16. Andijonda Dukchi eshon qo‘zg‘oloni ko‘tarilgan vaqtda Turkiston general-gubernatori bo‘lgan shaxsni aniqlang.

A) N. Korolkov B) A. Kuropatkin C) S. Duxovskoy D) A. Vrevskiy

17. Usmoniylar davlatida sipohiylar xo‘jaligining daromadini nima tashkil etganligini aniqlang.

A) savdogarlarning ularning xizmatlaridan foydalanganliklari uchun to‘lovlari
B) sulton xazinasidan olinadigan katta miqdordagi maosh
C) ijarachi dehqon to‘laydigan soliq
D) urushlarda qo‘lga kiritilgan o‘ljalar va shartnoma asosida harbiy xizmatlar

18. Tarixdan ma’lumki, 1592-yilda Yaponiya qo‘shini Koreya hududiga bostirib kirib, dastlab Seul, keyinroq Pxenyanni egallagan edi. Oradan qancha vaqt o‘tib Xitoy va Koreyaning birlashgan qo‘shinlari ularni ozod qildi?

A) bir yil B) uch yil C) olti yil D) to‘rt yil

19. Nil daryosi boshlanish havzalarini ilmiy o‘rganish bahonasi bilan yevropaliklar qaysi mamlakatni “ochishdi”?

A) Uganda B) Ruanda C) Chad D) Buganda

20. Quyidagi qaysi asar insonning o‘z g‘oyalari uchun kurashi buyukligini ta’kidlaydi va ma’rifat asri mohiyatini ochib beradi?

A) “Faust” B) “Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari”
C) “Makr va muhabbat” D) “Insoniy komediya”

21. O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi boshqaruviga o‘tgan davrda viloyatlar boshqaruvida tumanboshilar kimga bo‘ysunganlar?

A) Politsmeysterga B) Harbiy gubernatorga
C) Shahar hokimiyati boshlig‘iga D) Viloyat mahkamasi boshlig‘iga

22. Eron shohi Nodirshohning o‘g‘li Rizoquli yetakchiligidagi qo‘shin Amudaryodan o‘tib, ko‘pgina hududlarni bosib olgan vaqtda Qo‘qon xonligida kim hukmronlik qilar edi?

A) Abdurahimbiy B) Abdukarimbiy C) Erdona D) Norbo‘tabiy

23. “Chorak asr hamnafas” asari muallifini toping.

A) Kibriyo Qahhorova B) Aleksandr Middendorf
C) Alixonto‘ra Sog‘uniy D) Hoji Muin

24. O‘rta asrlarda Fransiyada qirolning markazlashtirish siyosatiga kimlar qarshi edilar?

A) dehqonlar va hunarmandlar B) shaharliklar, mayda va o‘rta feodallar
C) yirik feodallar, savdogarlar va shaharliklar D) yirik dunyoviy va diniy feodallar

25. Quyidagi shaxslardan qaysi biri Turkiston general-gubernatori sifatida faoliyat yuritmagan?

A) P. Lessar B) S. M. Duxovskoy C) A. Vrevskiy D) K. P. Kaufman

3-qism: Har bir topshiriq 3,4 balldan baholanadi

26. "Shahanshohbank" ochish to'g'risidagi shartnomaga ko'ra bank qanday huquqlarni olganligini toping.
1) qog'oz pullar chiqarish; 2) o'z aksiyalarini muomalaga chiqarish; 3) mamlakat yer osti boyliklaridan erkin foydalanish; 4) Eronda sanoat korxonalari qurilishini moliyalashtirish
A) 2, 4 B) 3, 4 C) 1, 2 D) 1, 3

27. XIX asrning so'nggi choragida Avstriya-Vengriya imperiyasining ilg'or Yevropa mamlakatlariga nisbatan sanoat taraqqiyoti sur'atlarining sekinlashuviga nima sabab bo'lgan edi?
A) imperiya asosiy aholisining ishsizligi
B) mustamlakalarning mavjud emasligi
C) mamlakatda feodalizm sarqitlarining saqlanib qolinganligi
D) chet davlatlarga ko'plap sarmoya chiqarganligi

28. Rossiya elchisi I. D. Xoxlovga qanday vazifalar yuklatilganligini aniqlang.
1) Rossiyani kuch-qudratiga Buxoro xonini ishontirish; 2) Xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish; 3) Xonlikdagi qal'alar va qo'shinning ahvolini o'rganish; 4) Buxoro xonligi qurolli kuchlari haqida ma'lumot to'plash; 5) Buxoro-Xiva munosabatlari masalalarini tahlil qilib chiqish.
A) 1, 4, 5 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 4 D) 2, 3, 5

29. A. Griffit tomonidan "Shinfeyn" partiyasi tuzilgan yilda sodir bo'lgan voqeani belgilang.
A) Buyuk Britaniya Quvaytda protektorat o'rnatdi.
B) Vilgelm II "hazrati Iso qabri"ni ziyorat qilish bahonasida Falastinga bordi.
C) Germaniya qurolli kuchlari Bosh shtabi ikki frontda urush olib borish rejasini ishlab chiqdi.
D) Turkiya va Germaniya o'rtasida temiryo'l masalasida yakunlovchi bitim imzolandi.

30. Chingizxon qo'shinlari Dashti Qipchoq yerlariga qaysi hududlar orqali chiqqan?
A) Afg'oniston, Sharqiy Eronni egallab, Kavkaz orqali
B) Afg'oniston, Shimoliy Eronni egallab, Xorazm orqali
C) Yettisuv, Sharqiy Eron, O'rta Osiyo orqali
D) Sharqiy Eron, Xorazmni egallab, Kaspiy sohillari orqali

31. Hindistonda sipohilar qo'zg'oloni bostirilgach, ingliz mustamlakachilari qanday islohotlar o'tkazishga majbur bo'lganlar?
1) yer egalarining soliqlarni oshirishi taqiqlab qo'yildi; 2) qo'zg'olonni bostirishga ketgan xarajatlarni qoplash uchun yangi soliqlar joriy etildi; 3) mahalliy rojalarning o'z yerlariga egaligi daxlsiz deb e'lon qilindi; 4) "Ost-Indiya" kompaniyasi tugatildi; 5) Hindistonda soliq tartibi va qishloq xo'jaligi nazorati Buyuk Britaniya ma'murlari qo'lidan ketdi
A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 3, 4, 5 D) 1, 3, 4

32. Ilk o'rta asrlarda qaysi davlatning ayrim tangalarida hukmdorga yonma-yon malika tasviri ham tushirilgan?
A) So'g'd B) Toxariston C) Choch D) Xorazm

33. O'rta asr Yevropa haykaltaroshligida diniy mavzu nima sababdan yuqori turgan?
A) haykaltaroshlar diniy ruhda tarbiya topib ulg'ayganliklari sababli
B) haykallarning asosiy buyurtmachilari cherkov bo'lganligi sababli
C) barcha qissa va dostonlar diniy mavzuda bo'lganligi sababli
D) boshqa mavzuda ijod qilish cherkov tomonidan taqiqlanganligi sababli

34. Hind adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri Rabindranath Thakur adabiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan yilda sodir bo‘lgan voqeani toping.
A) Xitoy hukumatiga qarshi “Ikkinchi inqilob” boshlandi
B) Avstriya-Vengriyada og‘ir iqtisodiy inqiroz yuz berdi
C) AQSH kongresi trestlarga qarshi qonun qabul qildi
D) Bolgariya o‘zini Usmoniylar imperiyasidan to‘la mustaqil deb e’lon qildi

35. Qanday jarayon Xiva savdogarlariga Kobul bozorlarida erkin savdo qilish huquqini berdi?
A) Muhammad Rahimxon I ning shoh Mahmudni taxtga o‘tirishiga ko‘rsatgan yordami
B) Xivadan Hindistonga chiqariladigan mollarning bir qismini Afg‘oniston bozorlarida sotilishiga ruxsat berilishi
C) afg‘on savdogarlariga Xiva orqali boj to‘lovlarisiz Rossiyaga o‘tishlariga ruxsat berilganligi
D) Afg‘oniston va Buxoro o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarida keskinlikning kuchayganligi

36. XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligining ma’muriy jihatidan bo‘linish tartibini toping.
A) Bekliklar, sarkorliklar, oqsoqolliklar, aminliklar
B) Bekliklar, oqsoqollliklar, sarkorliklar, aminliklar
C) Sarkorliklar, bekliklar, oqsoqolliklar, aminliklar
D) Aminliklar, bekiklar, sarkorliklar, oqsoqolliklar

37. Turkiston general gubernatoriligi tarkibida ushbu hududlar qaysi viloyatlar tarkibida edi?
1. Tajan; 2. Kopal.
a) Sirdaryo; b) Samarqand; c) Yettisuv; d) Kaspiyorti; e) Farg‘ona
A) 1-d, 2-c B) 1- a, 2-b C) 1- a, 2-a D) 1- b, 2-e

38. Afg‘oniston hukmdori Amir Do‘st Muhammadxon vafot etib, uning o‘g‘illari o‘rtasida taxt uchun kurash avj olgan yilda jahon tarixida qaysi voqea yuz bergan?
A) Kavkaz Rossiya tarkibiga kiritiladi
B) Li Sze Xvan qirol Kojon nomi bilan taxtga o‘tiradi
C) Venetsiya Italiya qirolligi tarkibiga qo‘shib olinadi
D) Juzeppe Garibaldi o‘z harbiy kuchlari bilan Sitsiliya oroliga kelib tushdi

39. Berdaq o‘zining qaysi she’rlari orqali yoshlarni Vatanni sevishga, ma’rifat cho‘qqilarini egallashga chaqiradi?
1) “Hoy yigitlar, yigitlar”; 2) “El bilan”; 3) “O‘g‘limga”; 4) “Umrim”; 5) “Ahmoq bo‘lma”; 6) “Xalq uchun”
A) 4, 6 B) 2, 3 C) 1, 6 D) 3, 5

40. Shayboniylar tomonidan ta’limni rivojlantirish sohasida islohot o‘tkazilishining sababini aniqlang.
A) Barcha sohalar bo‘yicha ilmli amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish
B) Temuriylar davridan yetib kelgan ilmiy muassasalarni yanada rivojlantirish
C) Yevropaning rivojlanib ketish sabablarini o‘rganish va unga imkon qadar yetib olish
D) Aniq va tabiiy fanlarda erishilgan yutuqlarni keng ommaga yetkazish